

Tadbirkorlikni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalar roli

Mamatov, Abdurauf Olimjon o'g'li

Роль имитационных инноваций в развитии предпринимательства

Маматов, Абдурауф Олимджон угли

The role of imitation innovations in entrepreneurship development

Mamatov, Abdurauf Olimjon ugli

Received: March 12, 2024 Revised: March 15, 2024 Accepted: March 25, 2024 Published Online: April 01, 2024

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida kichik biznesda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish shart-sharoitlari, xususiyatlari ko'rilgan. Shuningdek, imitatsion innovatsiyalarning ustun tomonlari yoritib berilgan. Hududlar iqtisodiy va ilmiy salohiyatining rivojlanish darajasi, aniqlangan integral indekslar yordamida tahlil qilingan hamda tadbirkorlikni hududlar bo'yicha innovatsion rivojlanish imkoniyatlari aniqlangan. Maqolada mustaqil innovatsiyani amalga oshirishda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni korxonaning o'zi amalga oshirishi hamda bu juda katta tavakkalchilikka bog'liq ekani va juda ko'p mablag' talab qilinishi aks ettirilgan. Odatda, yirik kompaniyalar mustaqil innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Tadqiqotchi tomonidan imitatsion innovatsiyalarda korxonaga to'g'ridan-to'g'ri ilg'or texnologiya va uskunalarni sotib olishi va ularni modernizatsiyalash hamda takomillashtirishga qaratilgan ishlarni olib borishi tadqiq etilgan. Imitatsion innovatsiyada olib boriladigan izlanishlar riskdan va qayta-qayta izlanishlardan, katta xarajatlardan xoli bo'ladi (yangi texnologiyani modernizatsiyalash, yangi texnologiyani ishlab chiqishga nisbatan arzon), bozorda o'z o'rnini topgan tovarlar va texnologiyalar imitatsiya qilinadi. Maqola tadbirkorlikni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalarning o'rnini va roliga bag'ishlangan hamda hududlar bo'yicha tahliliy jadvallar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, o'rta biznes, innovatsiya, imitatsion innovatsiya, mustaqil innovatsiya, indeks, integral indeks, texnologik innovatsiya, jarayonli innovatsiya, birgalikdagi innovatsiya, hududning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi.

Аннотация. В данной статье описаны условия и особенности использования имитационных инноваций в малом бизнесе Узбекистана. Также выделены преимущества имитационных инноваций. С помощью определённых интегральных показателей проанализирован уровень развития экономического и научного потенциала регионов, определены возможности инновационного развития предпринимательства в регионах. В статье отражено, что при осуществлении самостоятельной инновации научно-исследовательские, опытно-конструкторские и технологические работы выполняются самим предприятием, а это очень рискованно и требует больших денежных затрат. Обычно крупные компании занимаются самостоятельной инновационной деятельностью. В статье исследовано, что при имитационных инновациях предприятие напрямую закупает передовые технологии и оборудование, и проводит работы, направленные на их модернизацию и усовершенствование. Исследования, проводимые в рамках имитационных инноваций, свободны от риска и повторных исследований, высоких затрат (модернизация новой технологии обходится дешевле по сравнению с разработкой новой технологии), имитируются товары и технологии, нашедшие свое место на рынке. Статья посвящена месту и роли имитационных инноваций в развитии предпринимательства, представлены аналитические таблицы по регионам.

Ключевые слова: малый бизнес, средний бизнес, инновации, имитационные инновации, независимые инновации, индекс, интегральный индекс, технологические инновации, процессные инновации, совместные инновации, уровень

экономического развития региона.

Annotation. This article describes the conditions and features of the use of imitation innovations in small businesses in Uzbekistan. The advantages of imitation innovations are also highlighted. Using certain integral indicators, the level of development of the economic and scientific potential of the regions was analyzed, and the possibilities for innovative development of entrepreneurship in the regions were identified. The article reflects that when carrying out independent innovation, research, development and technological work is carried out by the enterprise itself, and this is very risky and requires large financial costs. Typically, large companies engage in independent innovation activities. The researcher investigated that with imitation innovation, an enterprise directly purchases advanced technologies and equipment and carries out work aimed at their modernization and improvement. Research carried out within the framework of imitation innovations is free from risk and repeated research, high costs (upgrading a new technology is cheaper compared to developing a new technology), goods and technologies that have found their place in the market are imitated. The article is devoted to the place and role of imitation innovations in the development of entrepreneurship, analytical tables are presented by region.

Key words: small business, medium business, innovations, imitation innovations, independent innovations, index, integral index, technological innovations, process innovations, joint innovations, the level of economic development of the region.

KIRISH

Bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan innovatsiyalar tushunchasini va bu bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish hamda shu asosda mamlakatimizda innovatsion rivojlanish jarayonini ilmiy asosda shakllantirish, informatsion texnologiyalarning ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida butunlay yangi bilimlar hosil qilib, yangi ko'rinishdagi faoliyat turlarini yaratish, ayniqsa innovatsion tadbirkorlikni joriy etish talab etiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyoti, xususan moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va iqtisodiy o'sishning asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda mahsulotga talabning ortishi, raqobatning kuchayishi, bilimlar iqtisodiyotiga o'tish va kompaniyalar o'rtasida iqtisodiy o'zaro aloqalarning kengayishi tadbirkorlikning rivojlanishi innovatsion xarakterda bo'lishiga olib kelmoqda. Tadbirkorlikni innovatsion rivojlanishida uni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma muhim o'rin tutadi [1] [2].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, 79% sanoat korxonalarini ko'proq texnologik innovatsiyalarni joriy qilishga e'tibor beradi, tashkiliy innovatsiyalar 29%, marketing innovatsiyalarini joriy qilish 18% ni tashkil qiladi [5].

Kichik biznesning zaif tomonini ifodalovchi va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishiga to'sqinlik

qiluvchi holatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moliya resurslari yetishmasligi;
- innovatsiyalar katta xarajatlar bilan bog'liqligi;
- texnik bazaning past darajada ekanligi;
- kredit foizi yuqoriligi;
- malakali kadrlar yetishmasligi;
- riskning yuqoriligi va hokazo [9].

Mustaqil innovatsiyani amalga oshirishda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni korxonaning o'zi amalga oshiradi va bu juda katta risk bilan bog'liq va juda ko'p mablag' talab qiladi. Odatda, yirik kompaniyalar mustaqil innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadi. Imitatsion innovatsiyalarda korxonalar to'g'ridan-to'g'ri ilg'or texnologiya va uskunalarini sotib oladi va ularni modernizatsiyalash hamda takomillashtirishga qaratilgan ishlarni olib boradi. Imitatsion innovatsiyada olib boriladigan izlanishlar riskdan va qayta-qayta izlanishlardan, katta xarajatlardan xoli bo'ladi (yangi texnologiyani modernizatsiyalash, yangi texnologiyani ishlab chiqishga nisbatan arzon), bozorda o'z o'rnini topgan tovarlar va texnologiyalar imitatsiya qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy munosabatlar tizimida innovatsiyaning o'rnini bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. P.V.Rodionov [Rodionov P.V., 2012] fikricha: "Innovatsion iqtisodiyot

inson kapitalini ijodiy salohiyatiga asoslangan holda bozor ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni ishlab chiqish majmui. Bunday iqtisodiyotda raqobat ustunligi xarajatlarni qisqartirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan milliy iqtisodiyotning tovarlar va xizmatlar iste'mol xususiyatlari sifatini yaxshilash hisobiga ta'minlanadi". Ayupov R.X. va Boltaboeva G.R. [Ayupov R.X., Boltaboeva G.R., 2013]: "Innovatsiya – hayotga tadbiriq etilgan va tijoratda qimmatga ega bo'lgan go'ya bo'lib, u yangi talablarni yarata oladi, mavjud talablarni samaraliroq ravishda qondiradi va sarf-xarajatlar hamda amaliyotga tadbiriq natijalarining optimal nisbatida iqtisodiy, informatsion, ekologik, ijtimoiy yoki boshqacha turdagi samara keltiradi", - deb ta'kidlaydilar.

Rossiyalik olimlardan Bulanova YE.V., Somenkova N.S., Yagunova N.A. [1] Gumerova G.I., Shaymiyeva E.SH. [2] ishlarida Rossiya sharoitida sanoat komplekslari tarkibida innovatsion korxonalarini rivojlantirish masalalari, ularni innovatsion infratuzilma elementlari bilan ta'minlash kichik korxonalarda texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishning strategik masalalari ko'rilgan. Xitoylik olimlarning [3] va [4] ishlarida xitoy xalq respublikasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari, tajribasi va imitatsion innovatsiyalarning ustun tomonlari yoritilgan. O'zbekiston olimlarining ishlarida, xususan G.Fedyasheva va boshqalarning ishlarida mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Mazkur ishda hududlarning ishlab chiqarish va ilmiy salohiyatidan kelib chiqib tadbirkorlikni hududlar kesimida imitatsion innovatsion rivojlantirish masalalari o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tizimli yondashuvi, analiz, sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash va istiqbolli prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyot mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga xizmat qiluvchi

ilm-fanni rivojlantirish, ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish, ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqishga joriy qilish, iste'molchiga yanada yaxshi mahsulot va xizmatlarni taqdim etish, yangi turdagi mahsulot (xizmat)lar ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, innovatsion iqtisodiyot cheklangan resurslardan samarali foydalanish, o'rinbosar mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, doimo yangi maqsad va rejalar ishlab chiqish orqali mamlakat aholisining hayot darajasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish mamlakatimiz jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo'lida tez va sifatli ilgarihlashni ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi. Xususan, bu borada ko'plab ko'rsatkichlarning mavjud emasligi va ishlar samarali muvofiqlashtirilmagan sababli mamlakatimiz so'nggi yillarda nufuzli va obro'li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida ishtirok etmayotgan edi.

2020 yilning 2 sentabr sanasida Global innovatsion indeks reytingining 2020 yil «Innovatsiyani kim moliyalashtiradi?» mavzusidagi 13-soni nashrdan chiqdi. Har yili 24 iyul sanasida chop etilishi an'anaga aylangan nashr pandemiya ta'siri ostida kechiktirilgani ma'lum qilingan edi. O'zbekiston 2020 yil 131 ta mamlakatlar ichida 93-o'rinni egallagan, bunda Shveysariya – 1, Shvetsiya – 2, AQSH – 3, Rossiya – 47, Qozog'iston – 77, Qirg'iziston – 94, Tojikiston – 109-o'rinni egallashgan edi.

Aytib o'tilganidek, O'zbekiston so'nggi marta 2015 yilda 122-o'rinni egallagan va oxirgi yillarda umuman GII ro'yxatidan joy olmagan edi. GII 2020 yil nashri 80 ta indikator tashkil topgan. Shundan,

58 ta indikator miqdoriy statistik ma'lumotlarni talab qiladi. 18 ta indikator turli indekslardan iborat va nihoyat 4 ta indikator Jahon iqtisodiy forumi tomonidan o'tkaziladigan so'rovnomalardan tashkil topadi. GII'da, shuningdek, «kirish» va «chiqish» indekslar to'plamlari mavjud. «Kirish» indekslarida innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlarning mavjudligi baholanadi. «Chiqish» indeksida esa innovatsiyalarning amalga oshirishdagi amaliy natijalar inobatga olinadi. «Kirish» indeksleri to'plamida O'zbekiston 81-o'rin, «chiqish» indikatorlar to'plamida esa 118-o'rinni egallagan. Solishtirilgan bo'lsak, 2015 yili «kirish» indekslar to'plamida 112-o'rin va «chiqish» indikatorlari ko'rsatkichida esa 127-o'rinni egallagan. «Kirish» indeks bo'yicha 31 pog'ona va «chiqish» indeksi bo'yicha – 9 pog'ona yuqorilagan. Bu degani, hozirda yurtimizda 5 yil avvalga nisbatan innovatsiyalarni joriy etish uchun resurslar ham ortgan, sharoitlar ham ijobiy tomonga o'zgargan [10]. 2015 yilga nisbatan umumiy reytingda 29 pog'onaga yuqorilash yomon ko'rsatkich emas. Ammo buni, baribir, biz kutgan ko'rsatkich ham deb ayta olmaymiz. Hozir «kirish» indeksi to'plamidagi indikatorlar bo'yicha statistik ma'lumotlarning barchasi so'nggi yillarga tegishli emasligi; 80 ta ko'rsatkichlardan 15 tasi bo'yicha statistik ma'lumotlarning mavjud emasligi bois 2020 yilda reytingda inobatga olinmagani; va eng asosiysi, «kirish» indeksidagi indikatorlarining natijalari «chiqish» indeksidagi indikatorlar to'plamida birinchi yilning o'zida aks etmasligi aniqlandi. Ya'ni «kirish» indeksi indikatorlaridagi o'zgarishlar «chiqish» indeksidagi indikatorlarda bir necha yillardan so'ng o'z natijasini bera boshlaydi. Bu 2–3 yil vaqtni talab qiladi. Masalan, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish uchun sarf etilgan investitsion mablag'lar «kirish» indikatorlari to'plamida aynan shu yilda umumiy reytingga ta'sir qilgan bo'lsa-da, uning natijasi, ya'ni yuqori texnologiyali mahsulotni ishlab chiqarish va eksporti yillar davomida amalga oshiriladigan jarayondir. Umuman, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va uning natijasini olish qisqa muddatda amalga oshiriladigan jarayon emas. Buning uchun inson resurslari, ya'ni inson kapitalini rivojlantirish, moliyaviy xarajatlar, va albatta, vaqt o'ta muhim hisoblanadi. So'nggi yillardagi islohotlar va hozirda amalga oshirayotgan amaliy chora-tadbirlarimiz kelgusi yillarda GII'da yanada

aniqroq aks eta boradi.

2020-2022 yillar GII reytingidagi yana bir muhim jihat - innovatsiyalar bo'yicha rivojlangan davlatlar (Shveysariya, Shvetsiya va AQSH) yetakchilik qilayotgan va innovatsiyalarning rivojlanganlik darajasi yalpi ichki mahsulotga va uni innovatsion rivojlanishga yo'naltirilganligiga bog'liq ekanligi ko'rinsa-da, aslida innovatsion rivojlanish Osiyo davlatlariga ko'chgani yaqqol qayd etildi. Ayniqsa, Xitoyning yillar davomida ketma-ket 14-o'rinni egallashi, Singapur (8-o'rin) va Koreya (10-o'rin) davlatlarining yuqori o'ntalikka kirishi buning ochiq isbotidir. Shunisi qiziqki, 2020 yilgi GII reytingi ma'lumotlariga ko'ra, 25 davlat o'z iqtisodiy rivojlanishiga nisbatan juda yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan, bu qatorda 8 ta Afrika mamlakatlari ham joy olgan.

O'zbekiston xususan, 2015 yilga nisbatan 2022 yilda infratuzilmaviy rivojlanishda 101-o'rindan 72-o'ringa ko'tarilgan. Bunda asosan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan Internet tarmog'idan foydalanish ko'rsatkichi bo'yicha aholining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ulanish imkoniyatlari ortganligini bilsak bo'ladi (36 o'ringa yuqorilagan). Shuningdek, elektron hukumat xizmatlari ko'rsatkichida 24-o'ringa yuqorilagan. Bu, albatta, so'nggi yillarda mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning dastlabki natijalaridir [10].

O'zbekistonning Global innovatsion indeksga qayta kiritilib baholanishi mamlakatning kelgusi rivojlanishi uchun va mamlakatdagi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, aholining turmush sifatini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. GII ko'rsatkichlari iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Bu jabhalar bugungi kunda hammaning e'tiborida bo'lib turgan tibbiyot, ta'lim, institusional rivojlanish, qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika, bank va moliya kabi deyarli barcha sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu iqtisodiyot tarmoqlarining xolis statistik ma'lumotlar bilan baholanishi va dunyo mamlakatlari iqtisodiyotlarining muntazam tarzda taqqoslab borilishi, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlarni belgilab olishda, oddiyroq qilib aytganda, «shpargalka» bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu indeksni chuqur tahlil etilsa, butun dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishdagi tajribalarini

o'rganish mumkin.

O'zbekiston sharoitida tadbirkorlik korxonalarida imitatsion innovatsiyalardan samarali foydalanish hududlarning iqtisodiy va ilmiy salohiyatiga bog'liq. Hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasini ifodalovchi yalpi hududiy mahsulotni qaraymiz (1-jadvalda respublika bo'yicha YAIM olingan), eng ko'p YAHM Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan, uning mamlakat YAIMdagi ulushi 14,6 %ga teng,

undan keyin Toshkent viloyati – 9,8 % va Samarqand – 7,3 %. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida bu ko'rsatkich juda past bo'lib, 3,7 %dan oshmaydi. Aholi jon boshiga YAHM indeksi Navoiy viloyatida 2,43, ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAHM respublika ko'rsatkichidan 2,43 barobarga ko'p. Xuddi shunday Toshkent shahri – 1,92 va Toshkent viloyatida – 1,13. Bu ko'rsatkich respublikanikidan yuqori.

1-jadval

Hududlar kesimida YAHM (O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIM), 2022

		YAHM (mlrd. so'm)	YAIMda hududlar ulushi (%da)	Aholi jon boshiga YAHM (ming.so'm)	Indeks
1.	O'zbekiston Respublikasi	511 838,1	100%	15 242,0	1,0
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	18 735,7	3,7	9 944,1	0,65
	Viloyatlar				
3.	Andijon	32 897,2	6,4	10 621,6	0,70
4.	Buxoro	26 695,0	5,2	13 980,1	0,92
5.	Jizzax	15 211,9	3,0	11 126,3	0,73
6.	Qashqadaryo	36 470,1	7,1	11 233,3	0,74
7.	Navoiy	36 685,2	7,2	37 119,5	2,43
8.	Namangan	23 239,0	4,5	8 353,6	0,55
9.	Samarqand	37 593,9	7,3	9 793,9	0,64
10.	Surxondaryo	22 349,3	4,4	8 597,2	0,56
11.	Sirdaryo	10 477,7	2,0	12 500,3	0,82
12.	Toshkent viloyati	50 117,8	9,8	17 164,2	1,13
13.	Farg'ona	32 943,3	6,4	8 861,5	0,58
14.	Xorazm	19 136,5	3,7	10 337,4	0,68
15.	Toshkent shahri	74 527,6	14,6	29 331,2	1,92

GII alohida indikatorlaridagi egallagan o'rnimizdan kelib chiqib, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishimiz va jahon tajribasidan kelib chiqib, zaruriy choralarni ko'rishimiz zarur. Shuningdek, GII ko'rsatkichlari har bir iqtisodiyotning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining kundalik hayot tarzini yaxshilashga, ish bilan bandligini ta'minlashga, iste'mol mahsulotlari turlarini ko'paytirishga, umuman olgandayaxshixayotkechirishgaerishishdaiinnovatsion iqtisodiyotning roli kuchli ahamiyatga ega. Innovatsion iqtisodiyot rivojlangan sari mamlakatda o'zgarishlarga bo'lgan qiziqish ortadi, xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatida innovatsion ishlanmalar bilan ishlash ko'nikmalarishakllanadi, xar bir shaxs innovatsion g'oya yordamida tadbirkorlik bilan shug'ullanishga intiladi, xar bir tarmoq xalqaro darajadagi korxonalar bilan raqobatlasha olish darajasiga erishadi. Hozirgi vaqtda innovatsiya bozor ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, ishlab chiqarish xarajatlarini raqobatchilariga nisbatan pasaytirish hisobiga tadbirkorning oladigan foydasini ko'paytirishning asosiy vositasi bo'lib bormoqda [6].

Davlatning innovatsiyaga oid siyosatini amalga oshirish pirovardida eng avvalo, aholini hayot kechirish darajasi oshib bormoqda va shu bilan birga innovatsion faoliyat rag'batlantirilmogda. Mamlakatimizda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash, jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarini joriy qilish hamda innovatsion loyihalarni rag'batlantirish borasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining noyob ilmiy-texnik uskunalaridan jamoaviy foydalanish markazlarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan davlat xarajatlarini ko'paytirish, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha maxsus institutlar (innovatsiya jamg'armalari, innovatsiya banklari, venchur jamg'armalari) tashkil etish, startap loyihalar uchun texnopark tashkil etish orqali mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish tarmog'ini rivojlantirish kabi strategik yo'nalishlarga e'tibori bu boradagi ishlarga misol bo'la oladi. Innovatsiya joriy qilingan tashkilotlar soni, jami joriy qilingan innovatsiyalar ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020-2022

yillar davomida O'zbekistonda innovatsiyalar joriy qilgan tashkilotlar va innovatsiyalarning eng ko'p soni Toshkent shahrida, eng kam soni esa Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida to'g'ri kelgan. Innovatsiyalar sonini ko'payishi bevosita ilmiy tadqiqotlar va tadbirkorlik faoliyati kombinatsiyasi bilan o'zaro bog'liq ravishda sodir bo'ladi [9].

Yurtimizda eng ko'p sonli tadbirkorlik korxonalarini faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqlardan biri bu yengil sanoatdir. Yengil sanoat tarmog'i raqobatbardoshligini oshirish, tarmoq korxonalarini zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta'minlash, import mahsulotlar bilan sifat jihatdan raqobatlasha olish salohiyatiga erishish tarmoq-ning dolzarb masalalaridan sanaladi. Shu bilan birga, respublika to'qimachilik sanoatining jadal rivojlanishini ta'minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yirik xorijiy bozorlarga yanada ilgari surish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida to'qimachilik sanoatining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh to'qimachilik mahsulotlarini yuqori texnologik ishlab chiqarishga qayta yo'naltirish orqali hajmi va sifatini oshirish, to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimini ilg'or menejment texnologiyalari, tarmoq korxonalariga har tomonlama ko'maklashish va qo'llab-quvvatlashning, shu jumladan ularning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni hal etishda samarali shakllarini joriy etgan holda tubdan qayta ko'rib chiqish kabi amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilangan [7].

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bilan birga paxta tozalash, charm-attorlik, poyabzal, ko'nchilik, ipak ishlab chiqarish sanoat sohalari ham yengil sanoat tarmog'iga kiradi. Tarmoqda korxonalar sonini ko'pligi, iste'molchilar talabining o'zgaruvchanligi, davlatning olib borayotgan siyosati yengil sanoat tarmog'ida kuchli raqobatni vujudga kelishiga sababchi bo'ldi.

Innovatsiya korxonalarining tashkiliy tuzilmalaridagi turli bo'g'inlar faoliyatining o'zgarishiga ta'sir etadi [11]. Natijada hudud, mintaq, jahon miqyosidagi raqobatda ustunlik qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Shuningdek, raqobatbardoshlik yangi g'oyalarni tijoratlashtirish, yangi mahsulot va jarayonlarni ishlab chiqish, biznesni yangi usul orqali amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va ko'nikmalarning jamlanmasini nazarda tutadi. Raqobatbardoshlik innovatsiyalar va bilimlar zanjiri hisoblanadi. Bunda bilim innovatsiyani yoki innovatsiya bilimni talab etishi mumkin. Innovatsiya jarayon bo'lsa bilim retsept va qayta ishlanadigan ingrediyentlardan iborat. Shuning uchun bilim, innovatsiya va raqobatbardoshlik tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar o'zaro bog'liq [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy munosabatlar subektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsiyani rivojlantirish kuchli ahamiyatga ega. Innovatsiya rivoji davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishga, zarur sharoit va muhit yaratilishiga, mamlakatda ilm-fan taraqqiyotiga bog'liq. Demak, raqobat – tinimsiz harakatga, innovatsiya bilan shug'ullanishga, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish evaziga yuqori samaradorlikka erishishga undovchi kuch.

Toshkent shahrida va Toshkent, Samarqand, Buxoro, Navoiy va Andijon hududlarida hududlarda texnopark, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi fondlar va boshqa innovatsion infratuzilma elementlarini tashkil qilish kelajakda tadbirkorlikni imitatsion innovatsion rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy hududida sanoat tarmoqlari rivojlanganligini e'tiborga olsak, bu hududning ilmiy salohiyatini oshirish muhim strategik masala deb hisoblash mumkin.

O'zbekiston sharoitida tadbirkotlikda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish samarali yo'l deb o'ylaymiz. O'rta darajada iqtisodiy rivojlangan Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo va Farg'ona hududlarida ham yuqori iqtisodiy, sanoat va ma'lum darajada innovatsion salohiyatga ega tadbirkotlik subektlarini innovatsion rivojlantirishda imitatsion innovatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Past iqtisodiy rivojlangan hududlarda, xususan Namangan, Jizzax Surxandaryo va Xorazm hududlarida tadbirkorlikni manzilli qo'llab-quvvatlash asosida ishlab chiqarish

salohiyatiga ko'ra, jamiyat uchun ustuvor bo'lgan sohalarida maxsus dasturlar asosida rivojlantirishni yaxshi yo'l deb hisoblashimiz mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Mamatov, Abdurauf Olimjon o'g'li** - Qarshi muhandislik -iqtisodiyot instituti "Iqtisodiyot" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi magistranti / **Маматов, Абдурауф Олимджон угли** - Каршинский инженерно-экономический институт Магистрант специальности «Экономика» (по отраслям и сферам) / **Mamatov, Abdurauf Olimjon ugli** - Karshi Engineering and Economic Institute Master's student in Economics (by industry and sphere)

<https://orcid.org/0009-0009-5454-6248>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Буланова Е.В., Соменкова Н.С., Ягунова Н.А. Формирование стратегии развития малого инновационного предприятия промышленного комплекса. // Журнал «Вопросы инновационной экономики». Том 9. № 2. Апрель-июнь, 2029.
- [2] Гумерова Г.И., Шаймиева Э.Ш. Анализ управления технологическими инновациями на промышленных Российских предприятиях: источники финансирования, инновационная стратегия. // Актуальные проблемы экономики и права. 2012. № 4 (24). С. 143-150.
- [3] Инновационное предпринимательство в Китае. // Фундаментальные исследования, - №10 с.74-78 (электронный ресурс) <https://www.fundamentalresearch.ru/ru/article/view?id=42283>
- [4] Сюй Хуэйчжун. Анализ преимущества имитационной инновации. //Гуманитарные и социальные науки. 2012. № 7.
- [5] Титов. Б. Сектор малого и среднего предпринимательства: Россия и Мир. Институт экономики роста им. Столипина П.А. июль, 2018. Электрон ресурс, <http://stolypin.institute/novosti/sector-malogo-i-srednego-predprinimatelstva-rossiya-i>
- [6] Курбанов А. Б. Роль малого бизнеса в инновационной деятельности //Economics. – 2020. – №. 1 (44). – С. 8-10.
- [7] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
- [8] Родионов П.В. Дискретность развития инновационной экономики. Автореферат диссертации на соискание

ученой степени кандидата экономических наук. – М.: 2012. 25 с. 14-6.

[9] Boboqulovich Q. A. THE ROLE OF ENTREPRENEURSHIP IN ADVANCED TRAINING OF SPECIALISTS IN THE AGRO-INDUSTRIAL COMPLEX //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – S. 137-144.

[10] Курбанов А. Б., ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ Р. У. В. А. Экономика и сотсиум. 2023. № 4-1 (107) //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n7rol-uslug-v-agrarnom-predprinimatelstve> (дата обращения: 24.10.2023).

[11] Sayyora G., Nasimovna N., Tokhirovna A. Prospects of Innovative Development of the Agricultural Sector. – 2023.

[12] Samiyeva G. T. THE MAIN SOCIO-ECONOMIC TASK-EMPLOYMENT OF THE POPULATION AND WAYS TO SOLVE UNEMPLOYMENT //” ONLINE-CONFERENCES” PLATFORM. – 2022. – С. 84-91.